

## ADABIYOTSHUNOSLIK TERMINOLOGIYASINING ZAMONAVIY LEKSIKOGRAFIK TALQINI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

**Xudoyberdiyeva Maxbuba Murodovna,**  
*Qarshi davlat universiteti,  
O'zbek tilshunosligi kafedrasida katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada adabiyotshunoslik terminologiyasining zamonaviy leksikografik talqini, uning nazariy va amaliy asoslari hamda rivojlanish tendensiyalari tahlil qilinadi. Adabiyotshunoslik terminologiyasini standartlashtirish va takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilib, uning zamonaviy ilmiy kommunikatsiyadagi ahamiyati ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** adabiyotshunoslik terminologiyasi, leksikografiya, terminologiya, termin, terminografiya, izohli lug'at, elektron lug'at, leksikografik talqin.

**Аннотация.** В данной статье анализируется современная лексикографическая трактовка литературоведческой терминологии, её теоретические и практические основы, а также тенденции развития. Особое внимание уделяется вопросам стандартизации и совершенствования литературоведческой терминологии, раскрывается её значение в современной научной коммуникации.

**Ключевые слова:** литературоведческая терминология, лексикография, терминология, термин, терминография, толковый словарь, электронный словарь, лексикографическая интерпретация.

**Abstract.** This article analyzes the contemporary lexicographical interpretation of literary terminology, its theoretical and practical foundations, and its developmental trends. Special attention is given to the standardization and improvement of literary terminology, revealing its significance in modern scholarly communication.

**Keywords:** terminology of literary studies, lexicography, terminology, term, terminography, explanatory dictionary, electronic dictionary, lexicographical interpretation.

**Kirish va dolzarbli.** Zamonaviy o'zbek tilshunosligida terminologik tizimlarni tartibga solish, ilmiy-texnikaviy va soha terminlarini standartlashtirish dolzarb masalalardan sanaladi. Har qanday ilm-fan sohasida bilimlarni to'g'ri, aniq va tizimli uzatish uchun terminologik apparatning mukammalligi muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbek adabiyotshunosligining terminologik tizimi uzluksiz rivojlanish va takomillashish jarayonida bo'lib, bu jarayon lug'atlarda o'z aksini topishi lozim.

Lug'at birliklari, xususan, terminlar ma'nosini aniq, to'g'ri va to'la belgilash, lug'at birliklari ma'nolarini izohlash, ularni o'zaro bog'liqlik asosida tartiblash, izchillik bilan qayd etish izohli lug'at tuzish ishining eng qiyin va asosiy jarayonlaridan hisoblanadi hamda leksikografdan chuqur bilim va katta mahorat talab qiladi. Lug'atning qiymati, muvaffaqiyati ana shu vazifaning qay darajada bajarilganligi bilan ham belgilanadi.[1]

**Metodlar va o'rganilish darajasi.** O'zbek adabiyotshunoslik terminologiyasi bo'yicha bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, H.Homidiy, Sh.Abdullayeva, S.Ibrohimova, N.Hotamov tomonidan tuzilgan "Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati" (1967, 1970), "Adabiy turlar va janrlar" (T.Boboyev), "Adabiyotshunoslikka kirish" (D.Quronov), "Adabiyot nazariyasi" (A.Ulug'ov) kabi qator asarlarda adabiyotshunoslik terminlari talqin etilgan.

N.Hotamov va B.Sarimsoqovning “Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati” (1979, 1983) hamda D.Quronov, Z.Mamajonov, M.Sheraliyevlarning “Adabiyotshunoslik lug‘ati” (2010, 2013) kabi fundamental lug‘atlarda terminlar izohlangan. Biroq maxsus adabiyotshunoslik lug‘atlaridagi terminlar talqini bilan umumiy izohli lug‘atlardagi talqinlar o‘rtasida tafovutlar mavjud. Bu masala bo‘yicha A.Madvaliyev, E.Begmatov, I.Ulug‘ov, A.Hojiyev, N.Mahmudov kabi olimlarning ishlari muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy leksikografiya adabiyotshunoslik terminlarini izohlash va lug‘atlarda berish masalasi muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Leksikografiya til birliklarini, jumladan, terminlarni yig‘ish, tavsiflash va lug‘atlarda aks ettirish tamoyillarini o‘rganuvchi fan sifatida adabiyotshunoslik terminologiyasining tartibga solinishi va standartlashuvda muhim o‘rin tutadi.

Bugungi kunda adabiyotshunoslik fanining rivojlanishi, yangi nazariy qarashlarning shakllanishi hamda xalqaro ilmiy aloqalarning kengayishi natijasida terminologik tizim muntazam ravishda boyib bormoqda. Bu esa terminlarning leksikografik tavsifiga nisbatan ilmiy yondashuvlarni takomillashtirishni talab etadi.

Terminologiya sohasidagi asosiy vazifalardan biri – tilning ifoda imkoniyatlarini yanada oshirish, terminologik ma‘noni muayyanlashtirishdan iborat. Zotan, terminologiya hozirgi davrda mavjud bo‘lgan fan - texnikaga oid ma‘no va tushunchalarni to‘la ifodalash bilan birga, bundan keyingi taraqqiyot jarayonida vujudga keladigan o‘zgarishlarni ham aks ettirish imkoniyatiga ega bo‘lishi lozim. Bu terminlar konseptual tabiatining dinamikligi bilan belgilanadi.[2]

Kognitiv leksikografiya nuqtayi nazaridan adabiyotshunoslik terminlari faqat til birligi sifatida emas, balki ilmiy bilimni ifodalovchi konseptual birlik sifatida ham talqin qilinadi. Shu sababli zamonaviy lug‘atlarda terminning nafaqat lingvistik tavsifi, balki uning konseptual mazmuni ham ochib beriladi. Bu yondashuv foydalanuvchiga termin ortida turgan ilmiy tushunchani chuqurroq anglash imkoniyatini beradi.

“Terminologik standartlashtirish jarayonlari terminlarni to‘plash va inventarizatsiya qilish (mavjud terminlarni va ular ifodalaydigan tushunchalarni aniqlash, ro‘yxatga olish), terminlarni tasnif qilish (ularni mavzu guruhlari, terminologik maydonlar bo‘yicha ajratish), terminlarni baholash (har bir terminning lingvistik sifati, qo‘llanish darajasi, tushuncha bilan muvofiqligini baholash), terminal tanlanishini amalga oshirish (ma‘lum bir tushuncha uchun eng maqbul termini tanlash (sinonimlar bo‘lgan taqdirda), terminlarni standartlashtirish (tanlab olingan terminlarni rasmiy standart sifatida tasdiqlash), terminlarning ta‘riflarini ishlab chiqish (standartlashtirilgan terminlar uchun aniq ilmiy ta‘riflar yaratish), standartlashtirilgan terminlarni tarqatish (terminlarni qo‘llanishi bo‘yicha tavsiyalar, lug‘atlar, ma‘lumotnomalar nashr etish)ni qamrab oladi.”[3]

**Tadqiqot natijalari.** Adabiyotshunoslik terminlarini standartlashtirishning o‘ziga xos xususiyatlari sifatida tarixiy va zamonaviy yondashuvlar uyg‘unligi (an’anaviy va zamonaviy terminlarni muvofiqlashtirish), Sharq va G‘arb adabiyotshunoslik an’analari (sharq (arab-fors) va g‘arb adabiyotshunoslik terminologiyasini uyg‘unlashtirish), terminlar semantikasi va etimologiyasi (terminlarning kelib chiqishi va ma’nosini aniq belgilash), terminlarning tavsif modellari (har bir termini izohlash uchun yagona tuzilish yaratish) hamda ta’rif turlari (tushunchaviy, funksional, tavsifiy ta’riflardan to‘g‘ri foydalanish)ni ko‘rsatish mumkin.

Terminologik standartlashtirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish dolzarblik kasb etadi. Jumladan, terminologik ma’lumotlar bazalarini yaratish (elektron terminologik lug‘atlar, terminologik bazalar); terminologik menejment tizimlari (terminologik ma’lumotlarni yig‘ish, saqlash va qayta ishlash uchun maxsus dasturiy ta’minot); terminologik ma’lumotlarni standartlashtirish formatlari; ontologiya va semantik veb texnologiyalari (termin va tushunchalar o‘rtasidagi munosabatlarni modellashtirish) kiradi.

“Bugungi kunga kelib jahonda amaliy va nazariy leksikografiya sohasida qator tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lib, ularda turli xil lug‘atlar yaratishining tamoyillari, lug‘atlar tipologiyasi, ulardan foydalanish bo‘yicha ilmiy-nazariy qarashlar ilgari surilgan bo‘lib, kompyuter leksikografiyasining umumiy nazariy masalalari yetarlicha yoritib berilgan.”[4]

Adabiyotshunoslikda yangi nazariy yo‘nalishlarning paydo bo‘lishi natijasida terminologik qatlam muntazam boyib bormoqda. Ko‘plab terminlar ingliz, rus va boshqa tillardan o‘zlashmoqda, bu esa ularning lug‘atlardagi talqinini takomillashtirishni talab qiladi. Elektron lug‘atlar va korpus lingvistikasi rivojlanishi terminlarni tavsiflashning yangi usullarini yuzaga keltirmoqda.

**Xulosalar.** Xulosa qilib aytganda, zamonaviy leksikografiyada adabiyotshunoslik terminlarini berish jarayoni ilmiylik, tizimlilik, aniqlik va funkcionallik tamoyillariga asoslanadi. Terminlarning izohlanishi, tasniflanishi va lug‘atlarda aks ettirilishi nafaqat adabiyotshunoslik fanining rivojlanishiga, balki ilmiy kommunikatsiyaning samaradorligini oshirishga ham xizmat qiladi. Shu bois adabiyotshunoslik terminologiyasining leksikografik tadqiqi bugungi tilshunoslik va terminshunoslikning dolzarb masalalaridan biri sanaladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Мадавалиев А. Изоҳли луғатда терминларнинг лексикографик талқинига доир // Ўзбек тили ва адабиёти, 2009, 1-сон. – Б. 64.
2. Narxodjayeva X. O‘zbek terminologiyasi masalalari. Monografiya. Qarshi: “Intellekt”nashriyoti, 2022. – B. 9.
3. Xudoyberdiyeva M. O‘zbek tilining izohli lug‘atlarida adabiyotshunoslik terminlarining berilishi: Filol. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD)...dissert. – Qarshi, 2026. – 115 b.
4. Апресян Ю.Д. Предисловие // Новый большой англо-русский словарь: В 3 т. / Под. общ. рук. Ю.Д. Апресяна, Э.М. Медниковой, А.В. Петровой. -М., 2016. - Т. 1. – С. 5.

5. Дониёров Р. Ўзбек тили техник терминологиясининг айрим масалалари. –Тошкент: Фан, 1977.–Б. 148.
6. Лейчик В. М. Терминоведение: предмет, методы, структура. Изд-е 5-е. –Москва: Книжный дом “Либроком”, 2009. –56 с.
7. Литвиненко Г.И., Дядечко А.Н. Способы словообразования как фактор системности в терминологии (на материале терминов химического машиностроения // Вестник СумДУ. Серия Филология, No 1, 2007. Т.1.–С.142-150.
8. Собирова Э. “Ўзбек тилининг изоҳли луғати”да ҳуқуқий терминларнинг берилиши: Филол.фан.бўй.фал.док-ри (PhD) дисс... –Тошкент, 2022. –179 б. –Б. 45
9. Ҳомидий Х., Абдуллаева Ш., Иброҳимова С. Адабиётшунослик терминлари луғати. – Тошкент, 1970.
10. Хотамов Н., Саримсоқов В. “Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o,,zbekcha izohli lug,,ati”. –Toshkent: O,,qituvchi, 1979.
11. Қосимов Н. Ўзбек тили илмий-техникавий терминологияси масалалари (Сўз ўзлаштириш ва аффиксация масалалари). –Тошкент: Фан, 1985. –Б. 47.
12. Қуронов Д. ва б. Адабиётшунослик луғати. –Тошкент: Академнашр, 2010.

